



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON  
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



## Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rne



***mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari***

Toshkent, 2020-yil 20-may

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek  
tili va adabiyoti universiteti**

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi**

**«MUHAMMAD RIZO OG‘AHIYNING O‘ZBEK  
MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI»**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman  
materiallari**

**Toshkent - 2020**

Bunda shoir saf tortgan lashkarlarga yor kipriklarini qiyoslar ekan, ularning mislsiz go'zalligi, jon olguvchi maftunkorligi dil javhari, ko'ngil oynasi bo'lgan ko'zni qo'riqlashiga tayanib, mavjud hayotdan timsollar topa olgan.

«Xorazmning ba'zi joylarida – deb yozadi G.P.Snesarev, – biz bilan suhbatda bo'lgan kishilar to'g'ridan-to'g'ri parilar suvda maskan tutishlarini tasdiqlaydilar. Chamasi, ular orasida suv pari deb nomlanuvchi alohida turkumning bo'lishi ham aslo tasodif emas. Afsonalarda ular aksariyat hollarda go'zal qiz qiyofasida, aniqrog'i, suv parisi tarzida tasvirlanadilar». Ogahiy g'azallarida ham afsonalarda tasvirlangan suv parisi obrazini uchratamiz:

*Xo'bluq avjiga chiqq'on quyosh oso ko'bdur,  
Rutbada o'xshag'uvsidur pari ummona sango. . [Ogahiy, 1971:56]*

Go'zal yorning yuksak darajadagi martabasiga tabiatdan qiyos izlagan shoir uni yorqin va nurafshon quyoshga, shu nurda jilvalanuvchi dengizu okean suvlariga, suv parisiga qiyoslaydi. Ogahiy lirikasidan bunday baytlarni ko'plab keltirish mumkin.

Manbalarda keltirilishicha, parilar shomonlikka da'vat qilish uchun tanlagan kishisiga tosh yoki kesak otishar ekan. Ogahiy she'riyatini kuzatish shoirning xalq orasida tarqalgan mazkur afsonadan xabardor bo'lganligini, uxlayotgan kishi tushida kechuvchi bu holatdan baytlar obrazlilikini ta'minlashda foydalanganligini ko'rsatadi:

*Har jafo toshiki otg'oy ul pari man telbaga,  
Etkurur jondin fuzunroq jismi uryonimga haz.*  
[Ogahiy, 1971: 263]

Mahbubaning otgan toshi, ya'ni yetkazgan jafo sitamlari lirik qahramonning badaniga ulkan bir rohat bag'ishlashidan Ogahiy aynan shu afsonaga ishora qilayotganligi anglashiladi.

Xullas, Ogahiy pari haqidagi xalq ishonch-e'tiqodlari, afsona va rivoyatlar mazmunidan, mumtoz adabiyot an'alariga tayanib, betakror lirik lavhalar yaratgan. Pari obrazi sifatlariga ishora qilish orqali shoir keng ma'noda yor husnu jamolini, oshiq qalbidagi botiniy kechinmalarni ifodalagan. Ishq, vafo, sabr, e'tiqod, halollik, go'zallik kabi pokiza insoniy tuyg'ularni ulug'lagan, insonlarni ma'naviy yetuklikka da'vat qilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atoullloh Husayniy. Badoi' u-s-sanoyi': (Aruz vazni va badiiy vositalar haqida) / Forschadan A. Rustamov tarjimasini. – T.: Adabiyot va san'at, 1981
2. Афанасев А. Поэтические воззрения славян на природу. Т.3. – М.:Изд.К.Солдатенкова, 1969
3. Begimova D. Fol va folbinlik haqida // O'zbekiston yosh adabiyotshunoslarining an'anaviy ilmiy anjumani materiallari. – T.: 1995. – B. 64.
4. Malikai ayyor. Doston./ Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. – T.: O'zFan, 1988.
5. Navoiy. Layli va Majnun. - T.: Adabiyot va san'at, 1990..
6. Ogahiy. Asarlar.V1-jildlik. J.1. Devon. – T.: Adabiyot va san'at, 1971
7. Ogahiy Muhammad Rizo. Asarlar.VIjildlik. J 2. Devon. – T.: Adabiyot va san'at,1972
8. Rabg'uziy. Qisasi Rabguziy. K.1. – T.: Yozuvchi, 1990. – B.13-15.
9. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – T.: Fan, 1995.
10. Rustamov A. So'z xususida so'z. – T.: Yosh gvardiya, 1987
11. Снесарев Г.П. Реликты до мусулманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.
12. Suv qizi. Ertaklar. – T.: 1966.
13. Qayumov O. Pari haqidagi xalq qarashlari va uning tarixiy asoslari. O'zbekiston yosh adabiyotshunoslarining an'anaviy ilmiy anjumani materiallari. – T.: 1995, 60-61-betlar.
14. Haqqulov I, Zanjirband sher qoshida. – T.: Yulduzcha, 1989.

## OGAHIYNING NASIMIYGA TATABBU'SI

**Zilola AMONOVA**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*BuxDU*

**Annotatsiya:** *Maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Muhammad Rizo Ogahiyning Ozarbayjon adabiyotining yorqin vakili Imodiddin Nasimiy g'azaliga yozgan tatabbu'si g'oyaviy-badiiy tahlil qilinadi. Tahlil davomida har ikkala ijodkor uslubining o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ogahiy, Nasimiy, tatabbu', adabiy ta'sir, g'oyaviy-badiiy tahlil, badiiy mahorat,*

Adabiyot tarixida tatabbu' (arabcha, biror narsaning ketidan tushish, izidan borish) atamasi bilan birgalikda nazira (arabcha, o'xshash, o'xshash narsa, namuna) termini ham ishlatiladi. Sharq mumtoz adabiyotida tatabbu' yaratish ancha keng rivojlangan. O'zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas.

Jumladan, tatabbu'ning eng nodir namunalarini hazrat Navoiy ijodida ko'rish mumkin. Ulug' shoirning Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Kamol Xo'jandiy kabi ijodkorlarning she'rlariga bog'lagan tatabbu'-naziralari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, tatabbu'-naziralar adabiy ta'sirning bir ko'rinishi sifatida adabiyotlarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Masalan, Muhammad Rizo Ogahiyning "Ustina" radifli g'azali Ozarbayjonning ulug' shoiri Imomiddin Nasimiyning "Ustina" radifli g'azaliga tatabbu'-nazira tarzida bitilganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Ma'lumki, Ogahiyning "Ustina" radifli g'azali adabiyotimizdagi eng mashhur va hatto maktab darsliklaridan ham o'rin olgan she'rdir. Ogahiy Nasimiyning mazkur g'azaliga nazira bog'lar ekan, uning radifi va bahrini aynan saqlaydi:

Tushmish muanbar sunbuling xurshidi tobon **ustina**,

- -V - / - -V - / - -V - / - -V - /

Shul rasmila mushkin xoling gulbargi xandon **ustina** [1, 37].

- -V - / - -V - / - -V - / - -V - /

Rajazi musammani solimda yaratilgan. Ogahiy g'azaliga e'tibor qaratsak:

Mushkin qoshing hay'ati ul chashmi jallod **ustina**,

- -V - / - -V - / - -V - / - -V - /

Qatlim uchun "nas" keltirur "nun" eltibon "sod" **ustina** [2, 37]

- -V - / - -V - / - -V - / - -V - /

Mazkur g'azaldagi mazmun-mohiyat va badiylikdagi o'xshash va tafovutlarni aniqlash uchun baytma-bayt tahlil qilamiz:

Nasimiy yorning muanbar(anbar hidli, xushbo'y) sochi va mushkin xoli tasvirini chiroyli o'xshatishlar asosida matla'da ifodalaydi. Ogahiy ham dastlabki baytda yorning mushkin qoshini ta'riflar ekan, mazkur qoshning hay'ati(shakli, ko'rinishi) "chashmi jallod" - jallod ko'zning ustidan o'rin egallaganligini birinchi misrada keltiradi. Ikkinchi misrada esa Ogahiyning badiiy iste'dodini namoyon qiluvchi go'zal tasvir keltirilgan. Ya'ni yorning qoshu ko'zlari oshiqning "qatli" uchun birlashib (nun va sod harflaridan "nas" (xabar) so'zi yasaladi) "nas"-xabar keltiradi. Ogahiy birgina baytda kitobat san'atidan mahorat bilan foydalanib, o'quvchi qalbiga zavq bag'ishlovchi go'zal manzarani yaratadi.

Keyingi baytda Nasimiy go'zal ma'shuqaning ishq ko'nglumga tushdi, shu bois ko'nglimni vayron ayladim, men uning (ma'shuqaning) mehrini esa jon

ayladim, ishqini “shon” (daraja, qadr) ayladimki, bundan uning g‘ami jonim ustiga tushdi, deydi:

*Ko‘nglimi vayron ayladim, mehring yeri jon ayladim,  
Ishqing mana shon ayladim, tushdi g‘aming jon ustina.*

Ogahiy keyingi baytda ham yor ta‘rifini davom ettiradi. Ya‘ni yorning zebo qomati va gul yuzi madhini tanosub va istiora san‘atlari vositasida bayon etadi. Mazkur baytda shoir yorning qaddini shamshod (sarvga o‘xshagan xushqomat va chiroyli daraxt), yuzini gulga qiyos etadi. Fikrini esa hayotiy misol bilan asoslaydi. Ya‘ni, tabiat shamshodga gul bitishni ham nasib qilgan. Bu bilan shoir yorning latofatini to‘laqonli aks ettiradi:

*Qilg‘il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvand shamshod ustina.*

Nasimiy ishq va oshiq haqidagi mulohazalarini davom ettirar ekan, oshiq uchun “mehnatu dard” darmon ekanligini, dard ortgan sayin darmon ham ortishini uchinchi baytda ta‘kidlaydi. Savol tug‘iladi, nega “mehnatu dard”ning ortishi oshiq uchun “darmon” bo‘ladi? Albatta, bu o‘rinda shoir ishqning ilohiy qudratiga urg‘u beradi. “Mehnatu dard” – ishqning ortishi insonni kamolot bosqichlariga ko‘taradi. Shuning uchun oshiq ishqni o‘ziga darmon deb biladi.

*Dardu mehnat oshiqqa darmon etar, bor, ey hakim,  
Har dam mango bir dard ilan ottirma darmon ustina.*

Ogahiy uchinchi baytda ham ma‘shuqa ta‘rifi va holati haqidagi fikrlarini davom ettiradi. Yorning “nozu adou g‘amzasi” dam-badam oshiqqa qasd qilishini, odamizod ahliga (oshiqqa) shunchalik “ofat” yetkazish mumkinmi, - deya gumonlanadi. Tajohulu orif san‘ati shoirning muddaosini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilgan:

*Noz-u ado-u g‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam,  
Vah, muncha ofatmu bo‘lur bir odamizot ustina.*

Nasimiy ham ma‘shuqa ta‘rifinidavom ettirib, yorning ruxsorida zulfni ko‘rgan kimsa, imon ustidagi “kufri siyah (qora)”ga o‘xshatishini navbatdagi baytda ta‘kidlaydi:

*Ruxsoring uzra zulfingi har kimsa kim ko'rdi, dedi,  
Kufri siyahdur sonasan, dog'itmish imon ustina.*

Uchinchi baytda Ogahiy esa, ishqdan xasta bo'lgan oshiqning jon asrashi dushvorligini, chunki "qotil ko'zi bedod" (ma'shuqa)dan har lahza "bedod"(jabr ustiga jabr)etayotganligini ta'kidlaydi:

*Man xastag'a jon asramoq yemdi erur dushvorkim,  
Qotil ko'zi bedod yetar har lahza bedod ustina.*

Nasimiy yorning go'zal ta'rifi haqida navbatdagi baytda shunday yozadi:

*Yoquti rayhoniydur xating, ey quti jon la'li labing,  
Shul rasma tushmishdur Xizr ul obi hayvon ustina.*

Nasimiy nazdida yorning go'zallik uzvlari – yoquti rayhoniyl xati, la'li labi oshiq uchun "quti jon"–jon ozuqasidir. Chunki oshiqningma'shuqa go'zalligidan bahramand bo'lishi u uchun tiriklik, hayot demakdir.Naql qilinishicha, Misrda qurg'oqchilik bo'lganda Misr ahli uchun Yusuf (a.s.)ning go'zalligi "jon quti", ya'ni ma'lum muddat yashashlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Nasimiy ikkinchi misrada Xizr nomini va "obi hayvon" – tiriklik suvini talmeh qilish bilan oshiq ham ma'shuqa go'zalligidan bahramand bo'lib, abadiy tiriklik suviga erishadi, deydi. Mazkur baytda shoir ruju' san'atidan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Ya'ni birinchi misrada yorning go'zalligi "jon quti", ikkinchi misrada esa abadiy tiriklikka erishish manbai ekanligini ifodalab, fikr ta'sirchanligiga erishgan.

Nasimiyning mazkur baytiga hamohang Ogahiy ham keyingi baytda ma'shuqa yuzining shavqi bilan oshiq ko'ngli shomu sahar shaydo ekanligini ta'kidlaydi. Shoir oshiqning bu holatini bulbulning ming turli faryod ustiga nolaqilishiga tashbeh qiladi:

*Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shomu sahar,  
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.*

Qayd etish joizki, Nasimiyning mazkur g'azali an'anaviy yetti baytda yozilgan. Ogahiy esa tatabu'-g'azal baytlarining sonini to'qqiztaga yetkazadi.

Sababi aynan yuqoridagi baytdan so'ng, kelgan ikki baytlarda ijtimoiy masalalar ifodasiga ham ma'lum ma'noda o'rin beradi:

*Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,  
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.*

Ogahiy ruhiy holat ifodasi uchun juda chiroyli va o'rinli talmehdan foydalangan. Ya'ni, falakning Besutun tog'idagi toshlarni Farhod ustiga yog'dirgani, mening boshimga yoqqan g'am toshlarining mingidan biriga ham teng bo'lolmaydi, deydi. Ayni mulohazalarini davom ettirib, navbatdagi baytda shohga murojaat qilib, karam aylar chog'ida hammani – yaxshi yomonni teng tutishini so'raydi. O'z fikrlarini tamsil – hayotiy dalillash asosida ifodadaydi. Ya'ni mehr-quyosh nuri vayronu obod ustiga teng tushadi. Shunday ekan, shoh ham barchaga teng karam ko'rsatmog'i lozimligini uqtiradi:

*Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamonu yaxshini  
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.*

Ogahiy mazkur mulohazalarni izchillikda davom ettirib, keyingi baytda Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq jihatlarni talmeh qiladi:

*Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,  
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.*

Darhaqiqat, inson necha yil umr ko'rishidan qat'iy nazar uning tani foniy, ya'ni "barbod o'lur", garchi Sulaymon (a.s.) kabi taxtingni bod-shamol ustiga qurib, sayr etsangda, foniyligingni unutma, deya shoir hukmdorlarni hushyorlikka chaqiradi. Ammo Ogahiy o'zi "zoru noshod"- qayg'uli bo'lishiga qaramay ayni mulohazalarni aytishga jur'at etganligidan, unga "yuzxayli g'am" hujum qilishi mumkinligini ta'kidlash bilan baytga yakun yasaydi:

*Ne jur'at ila Ogahiy ochmag'ay og'iz so'z dergakim,  
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zoru noshod ustina.*

Ogahiy ijtimoiy-siyosiy mazmundagi fikrlar bilan g'azalning yuqoridagi baytlarini yakunlaydi. Nasimiy esa o'z g'azalining 6-baytida, ya'ni begona baytida insonning ilohiyliги bilan bog'liq fikrlarni ilgari suradi:

*Nuri tajalli sirrini yuzingda ko'rdi ko'zlarim,*